

---

## FARG'ONA TUMANI HOKIMI SHOHIMARDONDA SAYYOR QABUL O'TKAZDI

Farg'ona tumani hokimi Shuhrat Mo'minov tomonidan joriy yilning 14 iyul kuni Shohimardon MFY hududida jismoniy va yuridik shaxslar vakillari ishtirokida sayyor qabul o'tkazildi.

Mazkur qabulda hozirgi kunda aholi ehtiyojlariga sabab bo'layotgan muammolarni bartaraf etish choralarini ko'rish, birinchi navbatda kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bo'lgan hamda boquvchisini yo'qotgan oilalarga yordam qo'lini cho'zish, shuningdek, Hukumatimiz tomonidan Shohimardon va Yordon MFY aholisiga ko'rsatilayotgan yordamlar haqida ham aholi bilan ochiq muloqot qilindi.

Qabul chog'ida Yordon MFY da sel oqibatida keltirilgan talofatlarni bartaraf etishda amaliy yordam berish, moddiy yordam olishga ko'maklashish, oliy ta'limga beriladigan imtiyozlar, ta'lim krediti olish va boshqa va shu kabi masalalarda murojaatlar qabul qilindi, ularni ijobiy va tezkor hal etilishi bo'yicha muddatlar belgilandi.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Instagram](#) | [Youtube](#) | [Telegram](#)

2021-07-15 14:53:43